

“HAYOT” KONSEPTINING MIKROKONSEPTUAL TAHLILI
(fransuz paremiologiyasi misolida)

Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna
Samarqand davlat chet tillar instituti professori.

Ibrohimova Muharram

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

Tel: +998930091881 muharramibrohimova28@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19680904>

Annotatsiya. Maqolada fransuz maqollari misolida “hayot” konsepti kognitiv-semantik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hayot konsepti uch makrokonsept: hayot, inson va faoliyat asosida tasniflanib, ular tarkibidagi mikrokonseptlar (vaqt, jarayon, tajriba, kurash, qadriyat, iroda, sabr va boshqalar) aniqlanadi. Fransuz paremiologik materiali hayotning mazmuni, murakkabligi va qadriyat sifatidagi talqinlarini namoyon etadi.

Kalit soʻzlar: hayot konsepti, fransuz maqollari, kognitiv-semantika, mikrokonsept, paremiologiya.

Аннотация. В статье на материале французских пословиц проводится когнитивно-семантический анализ концепта «жизнь». В исследовании концепт ‘жизнь’ классифицируется на основе трёх макроконцептов: жизнь, человек и деятельность, а также выявляются входящие в их состав микроконцепты (время, процесс, опыт, борьба, ценности, воля, терпение и др.). Французский паремнологический материал демонстрирует интерпретации жизни как смысла, сложности и ценности.

Ключевые слова: концепт жизни, французские пословицы, когнитивная семантика, микроконцепт, паремнология.

Abstract. This article presents a cognitive-semantic analysis of the concept of “life” based on French proverbs. The study classifies the concept of life into three macroconcepts: life, human, and activity, and identifies the microconcepts within them (time, process, experience, struggle, values, willpower, patience, etc.). French paremiological material reveals interpretations of life in terms of meaning, complexity, and value.

Keywords: life concept, French proverbs, cognitive semantics, microconcept, paremiology.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda “konsept” markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi.

Konsept bu inson ongida shakllangan, madaniyat bilan bogʻliq murakkab bilim birligidir.

Y.Stepanov konseptni “madaniyatning ongdagi yigʻindisi” sifatida taʼriflaydi. Konsept quyidagi komponentlardan tashkil topadi: tushunchaviy (denotativ), obrazli (metaforik), qiymatli (aksiologik), Masalan, ushbu maqolaning oʻrganish obyekti boʻlgan “Hayot” konsepti tushunchaviy xususiyatiga koʻra 1) biologik hodisa, obrazli metaforik xususiyatiga koʻra 2) “zavq”, “sharaflı yoʻl”, “umr” va 3) aksiologik xususiyatiga koʻra doimiy harakat yoki intilish maʼnolarini anglatadi. Ularning semantik vazifalari boʻyicha quyidagicha mikrokonseptual tasniflarini keltirish mumkin. Fransuz paremiologiyasida bunday konseptlar asosan, *La vie, Vivre, L’existence, La vitalité, Vivant(e), Survivre, Respirer, Subsister, Le vécu, La survie* kabi komponentlar asosida faollashadi. Ular borasida alohida toʻxtalishga harakat qilamiz.

“*La vie*” (eng yuqori chastota) bu soʻz eng koʻp uchraydi, demak fransuz maqollarida hayot fenomeni – markaziy, dominant tushuncha sanaladi. “*La vie est...*” modeli orqali hayotning ontologik taʼrifi beriladi (*hayot – dars, sayohat, gʻildirak, jang, sir, gʻazna*). “*La vie + négation*” modeli hayotning real va adolatsiz jihatlarini ochadi. Shuningsek, “*Vivre*” – bu feʼl hayot jarayonini qoidalar, maslahatlar, amaliy tajriba orqali izohlaydi. “*Il faut vivre...*” modeli – amaliy hayot qonunlari; “*Qui veut vivre...*” modeli – shart, talab, zarurat semasini kuchaytiradi.

“*Survivre*” fransuz mentalitetida yashab qolish alohida qiymat ekanini koʻrsatadi. “*Survivre + il faut + infinitif*” esa qiyinchilikdan oʻtish uchun zarur boʻlgan sifatlarni belgilaydi (kuch, sabr, ehtiyotkorlik). “*Survivre n’est pas exister*” tiriklik va omon qolishning farqini koʻrsatadi. “*La survie*” bu soʻz “*survivre*” semasiga yaqin, lekin tizim va holatni bildiradi. “*La survie dépend de...*” omon qolishning shartlari; “*La survie exige...*” insonga kerak boʻlgan psixologik va jismoniy fazilatlar ifodalangan. “*Vivant(e)*” bu sifat tiriklikning sifat jihati, ruhiy holat, faoliyatga urgʻu beradi. “*L’esprit vivant ne meurt jamais*” ruh oʻlmasligi. “*La vitalité*” bu soʻz energiya, kuch, ruhiy quvvatga urgʻu beradi. “*La vitalité se mesure...*” insonga baho berish mezonini. “*La vitalité naît du travail*” mehnatning qadri.

“*Respirer*” bu soʻzning maqollarda koʻp qoʻllanishi fransuz madaniyatida nafas - hayotning metaforik markazi ekanini koʻrsatadi. “*Respirer profondément...*” - ruhiy osoyishtalik; “*Le vécu*” bu soʻz tajriba va xotira semasini ifodalaydi. “*Le vécu est le meilleur professeur*” hayotiy tajriba nazariyadan ustunligini bildiradi. “*L’existence*” bu soʻz falsafiy va mavhum.

“*L’existence précède l’essence*” ekzistensializm. “*Subsister*” – bu soʻzning yuqori chastotasi fransuz madaniyatida minimal sharoitda ham yashab ketish koʻnikmasi muhim ekanini bildiradi.

Maqollar “*subsister*”ni kam bilan yashash, moslashuv, sabr, qanoat bilan bogʻlaydi.

Fransuz tilida hayot konsepti doirasidagi maqollar umumlashtirilganda 3 katta makrokonseptga birlashadi: **hayot** - vaqt, jarayon, **inson** - axloq, iroda, tajriba, **faoliyat** - kurash, moslashuv, harakat. Mazkur fransuz maqollari semantik jihatdan “hayot”, “inson” va “faoliyat” kabi yirik makrokonseptlar doirasida guruhlanar ekan, ular oʻz ichida bir qancha mayda mikrokonseptlarni qamrab oladi. Masalan, ular tajriba, kurash, qadriyat, vaqt, iroda, sabr kabi mikrosemantik maydonlarga ajraladi. Maqollardagi hayot mazmuni asosidagi komponentlarning qoʻllanilish chastotasi tahlili esa shuni koʻrsatadiki:

Fransuz maqollarining markazida “*la vie*” (hayot) turadi. Bu barcha semantik maydonni boshqaruvchi dominant tushunchadir. “*Vivre*”, “*survivre*”, “*subsister*” kabi feʼllar hayotning turli bosqichlari va sifat darajalarini ifodalaydi: *vivre* hayotni qanday yashash, *survivre* qiyinchilikda yashab qolish, *subsister* minimal sharoitda davom etish. “*Respirer*”, “*vivant*”, “*vitalité*” hayotning ichki energiyasi, ruhiy barqarorlik va ongli yashashni aks ettiradi. “*Le vécu*” hayotiy tajriba orqali shakllanadigan donolik semasini ochib beradi. “*L’existence*” esa falsafiy, mavhum, ontologik qatlamni ifodalaydi.

Demak, fransuz maqollarida hayot konsepsiyasi uch asosiy yoʻnalishda talqin qilinadi: hayotning oʻzi (*la vie*) asosiy, eng koʻp qoʻllangan tushuncha, hayot jarayonining darajalari (*vivre, survivre, subsister, survie*), hayotning ruhiy-psixologik koʻrinishlari (*respirer, vivant, vitalité, vécu*).

Shunday qilib, fransuz xalq tafakkuridagi hayotning qadri, hayot jarayonining amaliy tamoyillari, hayot uchun kurash va sabr, hayotning ruhiy mazmuni fransuz tili paremiologiyasining eng markaziy mavzulari ekanini yaqqol namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Степанов Ю. С. Французская стилистика в сравнении с русской. -М., 2002. - С. 221.
2. Сувонова Н. Frazeologiyada ro‘zg‘or buyumlari leksemasining ayrim referensiallik xususiyatlariga doir (fransuz va o‘zbek tili materialida) //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 35.
3. Ashurov, S., & Suvonova, N. (2023). Humorous phraseologisms-as a tool offunny assessment of real events (in French material). In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 10024). EDP Sciences.
4. Сувонова Н., Алиева Г. Ўзбек халқ мақолларини француз тилига таржима қилишнинг миллий хусусиятлари. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 3(32), 192–205 <https://journal.fledu.uz>
5. Сувонова Н. Н., Долиева Л.Б. Французча ономотопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон рухияти тасвири // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020. – № 2 (31). – Б. 65–79. // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan” <https://journal.fledu.uz>